



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

YOSHLARDA TADBIRKORLIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Raxmanov Abdurauf Muxammedovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent (PhD)

Annotatsiya

Maqolada Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar va o'zgarishlar sharoitida yoshlarda tadbirkorlik tafakkurini rivojlantirish, bunda yoshlarda tadbirkorlik madaniyati tushunchasi va uni shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar hamda yoshlarda tadbirkorlik tafakkurini shakllantirishda ma'naviy qadriyatlar va huquqiy madaniyatning o'rniga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, maqolada sotsiologik so'rovnoma natijalari ham keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: fuqarolik jamiyati, tadbirkorlik, millat, bag'rikenglik, respondent, yoshlar tadbirkorligi, iqtisodiy faoliyat, sanoat, agrar va servis, mustaqil fikrlash, urf-odat, an'ana, qadriyat, tafakkur.

ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОГО МЫШЛЕНИЯ У МОЛОДЕЖИ

Рахманов Абдурауф Мухаммедович

Ташкентский государственный экономический университет, доцент (PhD)

Аннотация

В статье рассматривается формирование предпринимательского мышления у молодежи в контексте реформ и преобразований, осуществляемых в «Новом Узбекистане». В связи с этим внимание уделяется концепции предпринимательской культуры среди молодежи, факторам, влияющим на ее формирование, а также роли духовных ценностей и правовой культуры в формировании предпринимательского мышления. В статье также представлены результаты социологического опроса.

Ключевые слова: гражданское общество, предпринимательство, нация, толерантность, респондент, молодежное предпринимательство, экономическая деятельность, промышленность, сельское хозяйство и сфера услуг, независимое мышление, обычаи, традиции, ценности, менталитет.

SPECIFIC FEATURES OF FORMING AND DEVELOPING ENTREPRENEURIAL THINKING IN YOUTH

Raxmanov Abdurauf Muxammedovich

Tashkent State University of Economics, Associate Professor (PhD)

Abstract

This article examines the development of entrepreneurial thinking among young people in the context of the reforms and transformations taking place in "New Uzbekistan." In this regard, it focuses on the concept of entrepreneurial culture among young people, the factors influencing its development, and the role of spiritual values and legal culture in shaping entrepreneurial thinking. The article also presents the results of a sociological survey.

Keywords: civil society, entrepreneurship, nation, tolerance, respondent, youth entrepreneurship, economic activity, industry, agriculture and the service sector, independent thinking, customs, traditions, values, mindset.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etar ekanmiz, odamlarning, jumladan, yoshlarning ijtimoiy hayotga munosabatini o'zgartirib borish maqsadga muvofiqdir. Oldimizga qo'ygan maqsadlarga faqat teran aql va chuqur mantiqqa asoslangan tafakkur yordamidagina erishish mumkin. Asosiy boylik egasi, ya'ni intellektual mulk sohibi, aql-zakovati cheksiz rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lgan inson o'z tafakkuri bilan ijob qilishga, buyuk ixtirolarni yaratishga qodir bo'ladi hamda insoniyat va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladi. Shunday ekan, bozor munosabatlari chuqurlashayotgan sharoitda yoshlar tadbirkorlik faoliyatining turli shakllarini rivojlantirish, ularga moliyaviy, tashkiliy va huquqiy

jihtadan ko'mak berish muhim ahamiyatga ega. Prezident Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: **“Biz yoshlarimizda tadbirkorlik tashabbusini rivojlantira olsak, ularga mablag'lardan to'g'ri foydalanishni o'rgatsak, nafaqat iqtisodiy, balki ko'plab ijtimoiy muammolarni hal etgan bo'lamiz”** [1:77].


Yosh tadbirkorlarni o'qitish, malakasini oshirish, rag'batlantirib borish, muntazam ravishda yangi va innovatsion mazmundagi axborotlar majmuasi bilan ta'minlash zarur. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot bosqichi sharoitida yosh tadbirkorlar mehnati muhim o'rin tutuvchi jarayon bo'lib, uni tobora takomillashib borayotgan huquqiy va tashkiliy asoslar negizida amalga oshirish talab etiladi. Bu holat tadbirkorlik faoliyatining zamon talablari, jamiyatning tobora o'sib borayotgan ehtiyojlari hamda jahon standartlariga moslashib borishini, ya'ni modernizatsiyalashuv samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda bu borada yoshlarning chuqur bilim olishlari, yetuk kasb egalari bo'lishlari hamda jismonan sog'lom bo'lib voyaga yetishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Prezident Sh. Mirziyoyev: **“Men har gal yoshlarimiz bilan uchrashganimda sizlarning g'ayrat-shijoatingizdan kuch-quvvat olaman, ko'nglim tog'day ko'tariladi. Har biringiz jonajon Vatanimiz va xalqimizga sidqidildan xizmat qilish orzusi bilan yonib yashayotganingizni yaxshi bilaman. Sizlarni O'zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasi sifatida qadrlayman”** [2], degani bejiz emas. Mamlakatimizning jahon hamjamiyatida o'z o'rniga ega bo'lib borayotgani Prezidentimiz tomonidan yoshlarning har tomonlama rag'batlantirilayotgani natijasidir [3]. O'zbekistonda istiqomat qilayotgan turli millat vakillarining tinch, ahil va farovon turmush tarzi asosida o'zaro hurmat hamda bag'rikenglik muhitida yashab kelayotganliklari ham muhim ahamiyatga ega.

O'tkazilgan sotsiologik so'rovnomada qatnashgan 760 nafar respondentning 87 foizini (661 nafar) 18–22 yoshdagilar, 7,8 foizini (59 nafar) 23–26 yoshdagilar, 2 foizini (15 nafar) 27–30 yoshdagilar va 3,3 foizini (25 nafar) 30 yoshdan yuqori yoshdagilar tashkil etgani quvonarli holatdir. So'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning 40,7 foizini (309 nafar) ayollar, 59,3 foizini (451 nafar) erkaklar tashkil qildi. Respondentlarning 18,4 foizi (140 nafar) o'rta ma'lumotlilar, 3,8 foizi (29 nafar) o'rta maxsus ma'lumotlilar, 68,2 foizi (518 nafar) tugallanmagan oliy ma'lumotlilar, 9,6 foizi (73 nafar) esa oliy ma'lumotlilardan iborat.

Yoshingiz:

760 javob




Rasm 1. So'rovnomadagi respondentlarning yosh ulushi

So'rovnomada ishtirok etgan respondentlarga **«Yoshlarni tadbirkorlikka o'rgatishni qaysi davrdan boshlash kerak?»** degan savol berilganda, so'rovnomada qatnashgan 760 nafar respondentning 15,3 foizi (116 nafar) **maktabgacha ta'lim muassasasidan**, 30,4 foizi (231 nafar) **oilada aqlini taniy boshlagan davrdan boshlab**, 44,5 foizi (338 nafar) **umumiy o'rta ta'lim davrida**, 9,3 foizi (71 nafar) **oliy ta'lim tizimida** deb javob bergan.

Shuningdek, 1 nafar respondent: **«Qiziqsa o'rgatish kerak, bo'lmasa shart emas»**, **«Aqlini taniy boshlagandan so'ng sodda hisob-kitob va xarajatlarni misol qilib o'rgatish ma'qul»**, **«O'zi men tadbirkorlikka tayyorman deb bilsa, demak tayyor bo'ladi»**, **«O'zining qiziqishi boshlangan vaqtdan boshlab o'qitish kerak»**, deb o'z munosabatlarini bildirgan.

Yoshlarni tadbirkorlikka o'rgatishni qaysi davrdan boshlash kerak (bitta javob variantini belgilang)

760 javob




Rasm 2. «Yoshlarni tadbirkorlikka o'rgatishni qaysi davrdan boshlash kerak?» savol ko'rsatkichlari

«Siz tadbirkorlik deganda nimani tushunasiz?» degan savolga respondentlarning 15,1 foizi (115 nafar) **ko'proq moddiy boylikka ega bo'lish**, 33,8 foizi (257 nafar) **insonlarning o'z ehtiyojlarini doimiy ravishda ta'minlab borishi**, 47,4 foizi (360 nafar) **insonning faoliyat yuritish uslubi**, 0,1 foizi (1 nafar) esa **«bu nafaqat inson ehtiyojlarini qondirish, balki jamiyat uchun ham foydali faoliyat yuritish va uni yuksaltirishdir»**, deb javob bergan.

Siz tadbirkorlik deganda nimani tushunasiz?

760 javob



Rasm 3. «Siz tadbirkorlik deganda nimani tushunasiz?»savol ko'rsatkichlari

Respondentlarning fikr-mulohazalaridan «yurt manfaatlarini yo'lida hamda o'zini va oila a'zolarini moddiy jihatdan ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yish» degan javob ustuvorlik qilganini anglash mumkin. Tadbirkorlik noyob qobiliyat bo'lib, yer, mehnat, kapital va axborot bilan bir qatorda iqtisodiyot hamda ishlab chiqarishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Tadbirkorlik biznes tarkibiga kiradi, biroq har qanday biznes tadbirkorlik bo'lavermaydi. Biznesda tovar va xizmatlar yaratilishi hamda bozordagi talab qondirilishi natijasida tadbirkorlik faoliyati yuzaga keladi.


O'zbekistonda tadbirkorlik tarixan ko'hna hodisa hisoblansa-da, bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida XX asrning 90-yillaridan boshlab kichik va o'rta savdo, umumiy ovqatlanish hamda aholiga xizmat ko'rsatish korxonalarining xususiyashtirilishi natijasida xususiy tadbirkorlik ancha rivojlandi.

Yoshlar o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rovnoma ishtirok etgan respondentlarga: «Sizningcha, tadbirkor quyidagi sifatlardan qaysi birlariga ega bo'lishi kerak?» degan savol berilgan. Ushbu savolga javob qaytargan 760 nafar respondentning 55,4 foizi (421 nafar) halollikni, 15,1 foizi (115 nafar) iqtisod qilishni, 2,5 foizi (19 nafar) saxiylikni, 8 foizi (61 nafar) adolatlilikni, 2,8 foizi (21 nafar) birovning mulkiga ko'z olaytirmaslikni, 1,2 foizi (9 nafar) mardlikni, 1,3 foizi (10 nafar)

ochiqko'ngillilikni, 8,9 foizi (68 nafar) yuksak ma'naviyatlilikni bildirgan. Shuningdek, 1 nafar respondent iqtisod qilish, halollik va adolatlilik kabi sifatlarni birgalikda ko'rsatgan.

Sizningcha tadbirkor quyidagi sifatlardan qaysi birlariga ega bo'lishi kerak? (uchtagacha javob variantini belgilang)

760 javob



Rasm 4. «Sizningcha, tadbirkor quyidagi sifatlardan qaysi birlariga ega bo'lishi kerak?» savol ko'rsatkichlari

Insonning intellektual salohiyati eng kamida o'ziga xos uchta xususiyatga ega. Bir tomondan, u amaliy faoliyatda qo'llanilib, hayotga tatbiq etilishi mumkin. Ikkinchi tomondan, har qanday jamiyat ravnaqining zaruriy sharti sifatida ko'plab odamlar faoliyatini bir yo'nalishga jamlash xususiyatiga ega. Uchinchi tomondan, u inson faoliyatining barcha turlarini birlashtira oladi. Chunki ma'naviy-ma'rifiy bilimlar ishlab chiqarishni, ilm-fanni, ta'lim-tarbiyani, boshqaruv va boshqa faoliyat turlarini qamrab olgani kabi, ularning hayotda bevosita ta'sirga ega bo'lishini ta'minlovchi va harakatga keltiruvchi kuch ham intellektual faoliyatdir.

Respublikamizda yoshlarning yangi innovatsion g'oyalar ustida ishlashlari, dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar yoshlari bilan bimalol bellasha oladigan darajada voyaga yetishlari borasida juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Bunga misol qilib, yoshlarning bugungi kunda dunyo miqyosida sport arenalarida, fan olimpiadalarida, turli ko'rik-tanlovlarda, innovatsion g'oyalar yaratish borasida erishayotgan yutuqlarini ko'rishimiz mumkin. Albatta, bunday sharoitlar va imkoniyatlar, birinchi navbatda, yurtimizdagi tinchlik, turli millatlar o'rtasidagi o'zaro tolerantlik natijasi ekanligi, shuningdek, davlatimizning mintaqada va dunyo miqyosida o'zaro tenglik asosida amalga oshirayotgan siyosati bilan bog'liqdir.

XXI asrda dunyoda ko'plab global muammolar yuzaga kelayotgani, jamiyat hayotini beqarorlashtirishga qaratilgan turli ko'rinishdagi tahdidlarning kun sayin paydo bo'layotgani va oqibatda yovuz g'oyalar keng tarqalayotgani barchamizdan ogohlik va hushyorlikni talab etayotganini anglashimiz lozim.

Bugungi islohotlar amalga oshirilayotgan sharoitda mustaqil fikrlovchi, tadbirkor yoshlarning bo'lishi davr taqozosi bo'lib, shaxsiy dunyoqarashga ega bo'lgan insonlarga jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi ko'plab loyihalarni ishlab chiqishga qodir bo'ladi. Davlat siyosatining bosh omillaridan biri teran fikrlovchi, o'z mustaqil dunyoqarashiga ega bo'lgan iqtidorli yoshlarni kamol toptirish va tarbiyalashdir. Chunki o'zgarar fikriga qaram bo'lish, turli ziddiyatlar va yot mafkuraga ergashish jamiyat ma'naviyatini tanazzulga olib kelishi shubhasiz.

Mustaqil fikrlash insonlar o'rtasidagi munosabatlar muhiti sog'lom bo'lganda rivojlanadi. Albatta, respublikamizda turli millat va elatlar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashda diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik g'oyalari singdirilib kelinmoqda. Jumladan, bu g'oyalar yoshlarimizga maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab singdirilib, butun jamiyat hayotida o'z aksini topmoqda.

Ma'naviy taraqqiyot to'g'risida so'z borganda, avvalo, yoshlar va ularning jamiyat hayotidagi faolligi tilga olinadi. Aynan yoshlar faolligi jamiyatda ma'naviy qadriyatlarning shakllanishini ta'minlaydi, ijtimoiy ongda paradigmal o'zgarishlar ham ana shu faollik mahsuli sifatida yuzaga keladi.

Yoshlarning milliy urf-odatlar, an'analar va qadriyatlar hamda milliy g'oyaga yot bo'lgan qarashlarga nisbatan mafkuraviy immunitetini shakllantirish, shuningdek, dunyoda ro'y berayotgan geosiyosiy o'zgarishlar, jarayonlar va vaziyatlarga nisbatan xolis va betaraf munosabatni rivojlantirish davr talabidir.

Yoshlar masalalari mamlakat taraqqiyoti va ravnaqi bilan bevosita bog'liq ekan, rahbar va mas'ul xodimlar ularni turli ma'naviy-mafkuraviy tahdidlardan, har qanday ichki va tashqi xavf-xatarlardan ko'z qorachig'iday asrashni o'zlarining muqaddas burchi deb bilishlari muhimdir.

Milliy mafkuramizning asosiy vazifalaridan biri sifatida xalqimizda, jumladan, yoshlarimizda mustaqil dunyoqarash va erkin tafakkurni shakllantirish ustuvor vazifalardan biri etib belgilangan. Mustabid tuzum xalqlarning milliy mustaqillikka va erkin fikrlashga bo'lgan intilishini bo'g'ib, ularni mutelik va itoatkorlikda ushlab turishga intilar edi. Albatta, mustaqillikning qadr-qimmatini teran his etish uchun, avvalo, tarixni bilmoq, xalqimiz boshiga tushgan sinovlarni, mustamlakachilik asoratlarini va xo'rliklarini yurakdan his etmoq, ozodlik uchun kurash yo'lidagi ulug' ajdodlarimiz jasoratidan voqif bo'lmoq zarur.

Bizningcha, modernizatsiya tafakkuri yoshlarda modernizatsiyaning mazmun va mohiyatini chuqur anglagan holda uni rivojlantirish uchun o'z ongini yuksaltirish hamda narsa va hodisalar mohiyatini teranroq idrok etishga xizmat qiladigan mantiqiy faoliyatdir.

Ozod yurtning hur fikrli farzandlari mustaqil va erkin tafakkur qilish huquqiga egadirlar. "Tafakkur erkinligi jamiyat va inson erkinligining ma'naviy, intellektual negizidir. Erkinlikning har qanday shakli: ilmiy-iqtisodiy, texnologik, siyosiy, huquqiy va boshqalar – eng avvalo jamiyat va inson tomonidan anglab olinishi mumkin" [4:4]. Bu esa odamning tabiatning ishtirokchisi, uning tarkibiy qismi ekanligining in'ikosidir.

"Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo bilim o'z yo'liga. Mustaqil fikrlash ham katta bilimdir" [5:49–50]. Fikr mustaqilligiga kafolat bo'lishi uchun esa jamiyatning yetakchi kuchlari safarbar etilmog'i lozim.

Bunday o'zgarishlarning samarasi esa kundan-kunga ko'proq sezilib bormoqda.

Tafakkur ozodligi uchun xalqimizning qanchadan-qancha allomalari kurashib kelganlar. Jadidchilik va milliy ozodlik harakati namoyandalarning faoliyati bunga yorqin misol bo'la oladi. Ular millatning tili va dini, urf-odat va an'alarini saqlab qolish uchun fidokorona kurashganlar va bu yo'lda ko'plab qurbonlar berganlar [6].

Yoshlarning ma'naviy yetukligini esa ilmiy jihatdan to'g'ri tashkil etilgan ta'lim-tarbiya tizimi ta'minlashi mumkin.

Yoshlarni doimo hushyorlik va ogohlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yanada kuchaytirish bugungi kunning eng muhim va dolzarb vazifalaridan biridir.

Bugungi dunyo har sohada shiddat bilan rivojlanmoqda. Axborot oqimining tezligi oshib bormoqda. Mazkur sharoitda yoshlarda global internet va ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri foydalanish madaniyatini shakllantirish jamiyat muammosi sifatida e'tirof etilmoqda. Mamlakatimiz jamoatchiligi e'tibor markazida yoshlarda rasmiy (milliy domen) saytlardan va internetdan unumli foydalanish ko'nikmasini shakllantirish muammosi turibdi. Yoshlarda insonning ma'naviy dunyoqarashi va tafakkuriga salbiy ta'sir etuvchi axborot oqimlariga nisbatan mafkuraviy immunitet va g'oyaviy kurashchanlik salohiyatini shakllantirish hamda oshirish har qachongidan ham dolzarbdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh. M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2019. – B. 77.
2. Shavkat Mirziyoyev yoshlar bilan uchrashdi [Elektron manba]. – URL: <https://www.gazeta.uz/uz/2020/12/25/forum> (murojaat sanasi: 25.12.2020).
3. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2019. – 201 b.
4. Erkayev A. Tafakkur erkinligi. – Toshkent, 2007. – 160 b.
5. Karimov I. A. Yoshlarimiz – xalqimizning ishonch va tayanchi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006. – B. 49–50.
6. Tulenova G. Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda ma'naviy omilning roli: 09.00.11 – falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: O'zMU, 2006. – 146 b.